



MUROD MUHAMMAD DO‘STNING “MUSTAFO” QISSASIDAGI G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLAR

Karimova Moxinur Rustamjon qizi

Murod Muhammad Do‘stning qissanavislik mahorati haqida gap ketar ekan, u zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo‘lib, chuqur mazmunli va hayotiy tasvirlari bilan ajralib turadi. Uning asarlarida insoniy qadriyatlar, jamiyatdagi muammolar va inson ruhiyatining nozik jihatlari mahorat bilan ochib beriladi. Murod Muhammad Do‘st o‘z asarlarida oddiy odamlarning hayotini tasvirlash orqali keng qamrovli va dolzarb mavzularni yoritishga muvaffaq bo‘ladi.

Adibning navbatdagi qissalari bo‘lmish “Mustafo” hamda “Iste’fo” ham aynan Galatepa bilan bog‘liq bo‘lib, asar qahramonlari galatepalik shaxslar, hayotlari ham bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir.

Murod Muhammad Do‘stning “Mustafo” qissasidagi Mustafa obrazi o‘ziga xos va chuqur mazmunli qahramonlardan biridir. Mustafa oddiy dehqon oilasidan chiqqan, mehnatsevar va halol inson bo‘lib, uning xarakteri va hayotiy kurashlari orqali muallif jamiyatdagi ko‘plab muammolarni yoritadi. Ushbu qissada jamiyatdagi illatlar, inson qadr-qimmati, sadoqat, insoniylik kabi xislatlar haqida so‘z boradi.

Adibning “Mustafo” qissasi uning ijodidagi muhim asarlardan biri bo‘lib, o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Qissada yozuvchi ko‘tarilgan mavzular, qahramonlarning tasviri va badiiy uslub orqali o‘z o‘quvchisiga chuqur ta’sir o‘tkazadi. Quyida “Mustafo” qissasining o‘ziga xos jihatlari keltirilgan:

1. Qahramonning ichki kurashi va rivoji. Qissada bosh qahramon Mustafo o‘zining ichki kurashi va rivoji bilan ajralib turadi. U o‘zining shaxsiy tamoyillari, e’tiqodlari va hayotiy qarashlarini saqlab qolish uchun kurashadi. Qahramonning ichki o‘zgarishlari va ruhiy kechinmalari qissa davomida batafsil tasvirlangan. U shu



yoshigacha insonlarning ko'ngliga ozor bermagan, hamisha barchaning qosh-qovog'iga qarab yashagan, nimadir deb gapirib qalbiga ozor berishdan cho'chiydigan inson. U hamisha biroz qattiqqo'l, salgina qo'pol bo'lishga harakat qiladi, ammo tilidagini diliga chiqara olmaydi. *"Aytaman, - deb o'yladi u. - Usmonboy kelsin aytaman... Sen bu ishingni qo'y, deb aytaman, mening sendan bosgqa ichkuyarim yo'q, kelib yonimda jilmaygina o'tir, ichmasang, qimor o'ynamasang bo'ldi. Mening bor-yo'q davlatim seniki... Ta'na qilgan odamning ko'zi chiqsin!.."* Ushbu gaplarni qimorda yutqazib, Bolta qassobdan qarz bo'lgan jiyanining qarzini to'lagandan so'ng aytmoqchi bo'ladi, ammo tarki odat amri mahol deganlaridek, jiyaniga bir og'iz ham tanbeh berishga jur'ati yetmaydi. Bu uning qat'iyatsizligidan emas, mendan keyin uyimning chirog'ini shu yigit yoqsин, agar jahl qilsam ketib qolsa holim ne kichadi degan qo'rquv yuzasidan so'zlay olmagan.

2. Axloqiy va etik masalalar. Qissada axloqiy va etik masalalar muhim o'rin tutadi. Mustafo o'zining axloqiy tamoyillari va e'tiqodlariga sodiq qolish uchun qiyin tanlovlar qilishiga to'g'ri keladi. Uning qarorlari va harakatlari o'quvchini chuqur o'ylashga va axloqiy masalalar haqida mulohaza yuritishga undaydi. Masalan, qizining birgina aybi yuzidan uni bir umrga kechirmaydi. *"Erini sharmanda qildi, kampir! – dedi u. – Men uni shu umid bilan katta qilib edimmi? Eriyam cho'chqa ekan, qaytadan xotin qilib o'tiribdi. Menga qolsa... E, mening unday qizim yo'q. Zotimda bittayam benomus bo'lmagan, lekin shu kelib mening belimni sindirdi. Dunyoga kelganimga pushaymon qildirdi, Gulsara."* Qalbi o'rtanib so'zlangan ushbu jumlar ostida inson g'ururi va sha'ni yotadi. Qizining noma'qul ishi tufayli bosh ko'tarolmay qo'ygan ota hattoki el-yurtga ham qo'shilmas, to'y va azalarga faqat Ibodulla Maxsum va G'uchchi chol bilangina birrovga borib kelardi. Nomusi ustunlik qilib, qizini kechirib birga yashayotgani uchun kuyovidan ham yuz o'girib, ostonasidan quvib solgan. Kampiri qancha yalinib-yolvormasin baribir gapida qat'iy turib olar, Gulsara kampir ham uning bir so'zli ekanligini juda yaxshi bilardi. Ammo asar so'ngida Mustafo xastalangach



qizini kechiradi, biroq yuzini ko‘rishni istamaydi, o‘z axloqiy tamoyillariga sodiq qoladi.

3. Badiiy usul va stilistik xususiyatlar. “Mustafo” qissasi badiiy usuli va stilistik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Yozuvchining tili boy va obrazli bo‘lib, u o‘quvchiga voqealarni jonli va ta’sirchan tarzda tasvirlash imkonini beradi. Uning badiiy vositalaridan mohirona foydalanishi asarning estetik qiymatini oshiradi. Adibning qahramoniga nisbatan bergan ta’rifi orqali kitobxon o’sha obrazni yaxshiroq yodda saqlaydi. Xususan, “kamyurim” so‘zi (*Mustafo kamyurim odam, juda qistov bo‘lmasa uyidan ko‘p jilmaydi*).

Yozuvchi asarda dialektizmlarning badiiy vazifasi kengligini ko‘rsatib o‘tgan. Masalan, *Mundaylikda men sob bo‘laman-ku, amaki!* – dedi Usmonali gapida qo‘llanilgan *mundaylik, sob* dialectal so‘zlari so‘zlovchining oddiy shaxs ekanligini yaqqol ifodalab beradi.

Bundan tashqari, ma’no ko‘chimlari ham asarda talaygina. Masalan, akasini ko‘rishga kelgan Pirimqulning xotiniga nisbatan “*Gaping sovuq*”, degan iborasidagi sovuq so‘zi “yomon gap” degan ma’noni anglatadi, bu jumlada metofozdan foydalanilgan. Ota-onasining ko‘zi ochiqligida hammasi inoq edi jumlasida “ko‘zi ochiq” iborasi “tiriklik” ma’nosini ifodalab kelgan

4. Qahramonlarning murakkabligi. Qissadagi qahramonlar murakkab va ko‘p qirrali. Ular o‘zlarining hissiy va ruhiy holatlari bilan o‘quvchini hayratda qoldiradi. Mustafo va boshqa qahramonlarning murakkabligi ularning qarorlariga, harakatlariga va o‘zaro munosabatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Murod Muhammad Do‘stning “Mustafo” qissasidagi murakkab obrazlardan biri Usmonali hisoblanadi. Usmonali qissa davomida turli jihatlar va ziddiyatlari bilan ajralib turadigan personajlardan biridir. Uning obrazidagi murakkablikni quyidagi nuqtalarda ko‘rish mumkin.

Usmonali o‘z manfaatlarini har doim ustun qo‘yadi. U ko‘pincha o‘zining foydasini ko‘zlaydi, Mustafodan o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida foydalanadi. Bu



holat uning murakkab va salbiy obrazini yanada kuchaytiradi. Ammo asarni o'qish jarayonida uning bu holatga tushishiga aslida sevgidan kuyganligi, sevgan insoni unga qiyo ham boqmay, sovchilarini behurmat qilgani vas hu tufayli insonlardan bezib qolganligi sabab bo'lganini ko'rishimiz mumkin. U o'z ota-onasi bilan emas, amakisi Mustafo bilan bir necha yildan beri yashar, sevgidan kuygan qalbiga yagona malham ichkilik edi. U Mustafoga "boboy", Gulsaraga esa "kampir" deb murojaat qilar, hatto amakisi qabrtosh uchun deb bergan pulni ham ichib yuboradi, qimorda katta miqdorda qarz bo'lib qoladi. Qarzlarning barchasini Mustafo to'laydi. Mana shu voqeadan so'ng u biroz hushyor tortadi. Usmonali obrazining murakkabligi uning vaqt o'tishi bilan o'zgarishlar va rivojlanishlar ko'rsatishi bilan ham bog'liq. U o'z hayotida turli sinovlar va qiyinchiliklarga duch keladi, bu esa uning xarakteridagi o'zgarishlarga olib keladi. Yerni chopiq qilish maqsadida yalangoyoq bo'lgan paytda oyog'ining oftob ko'rmaganidan oppoq turganidan uyalib, unga kesakni maydalab tuprog'ini sepgan odamni salbiy qahramon qatoriga kiritish noto'g'ri. Asar yakunida Mustafoga "amaki", kampirini esa "ena" deb murojaat qilishi uning vijdoni uyg'onib, insonparvar bo'lganining belgisi edi.

Murod Muhammad Do'stning "Mustafo" qissasida Usmonali obrazining murakkabligi va ziddiyatlari o'quvchiga insoniy tabiatning murakkabligini va insonlarning turli xil fazilatlari va kamchiliklarini anglash imkonini beradi. Bu obraz orqali muallif insoniy munosabatlar, axloqiy qadriyatlar va hayotiy sinovlar haqida chuqur mulohazalar qiladi.

5. Falsafiy yondashuv. Asarda falsafiy yondashuv muhim o'rin tutadi. Mustafo qahramoni orqali hayot, o'lim, adolat, haqiqat kabi falsafiy masalalar yoritiladi. Bu qahramonning ruhiy va falsafiy izlanishlari o'quvchiga chuqur falsafiy fikrlar yetkazadi.

Qissada Mustafo hayotining turli davrlari tasvirlanadi. U duch keladigan qiyinchiliklar va sinovlar orqali muallif hayotning murakkabligini va insonning



qismati qanday bo‘lishidan qat’i nazar, unga bardosh berish lozimligini ko‘rsatadi. Hayotdagi to‘siqlar va ularni yengish falsafasi asarning asosiy mavzularidan biridir.

Asarda yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash asosiy mavzulardan biri sifatida ko‘tariladi. Mustafoning hayotida bu kurash doimo mavjud bo‘lib, uning qiyinchiliklar va sinovlar bilan to‘qnashuvi bu mavzuni yanada yorqinroq ko‘rsatadi. Masalan, Mustafo va Bolta qassob bir-biriga kontrast qo‘yilgan.

Mustafoning ko‘ngilchan obraz sifatida talqin qilishining sababi, ushbu qahramon orqali isnonga Alloh tomonidan berilgan eng buyuk ne‘mat – vijdonni pok holda saqlash, bu dunyoda vijdonsiz bo‘lib mavqega erishgandan ko‘ra, pokiza vijdon bilan halol yashagan, kimsaning ko‘ngliga zarracha ozor bermay, pok yashagan ma’qul degan qarash mavjud.

“Mustafo” qissasida keltirilgan falsafiy yondashuvlar o‘quvchiga hayotning turli qirralarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu asar insoniy qadriyatlar, axloqiy tamoyillar va hayot ma’nosi haqida chuqur mulohazalar bilan boyitilgan bo‘lib, o‘quvchini ko‘plab falsafiy savollarga javob izlashga undaydi.

6. Insoniy qadriyatlar. “Mustafo” qissasi insoniy qadriyatlarni ulug‘laydi. Asarda do‘stlik, sevgi, sadoqat, va adolat kabi insoniy qadriyatlar markaziy o‘rinni egallaydi. Yozuvchi bu qadriyatlarni o‘z qahramonlari va voqealar orqali o‘quvchiga yetkazishga harakat qiladi.

Qissada Mustafo va uning do‘stlari o‘rtasidagi munosabatlar orqali haqiqiy do‘stlikning qadr-qimmati va uning inson hayotidagi o‘rni yoritiladi. Bu munosabatlar orqali muallif samimiylik, sadoqat va yordam kabi fazilatlarning ahamiyatini ta’kidlaydi. Bosh qahramon Mustafo hech kimga qo‘shilmasa ham uning ikki yaqin do‘sti bore di. Ular – Ibodulla Maxsum va G‘uchchi chol. Murod Muhammad Do‘stning “Mustafo” qissasida Mustafo va Ibodulla Maxsum, G‘uchchi chol o‘rtasidagi do‘stlik voqealari muhim o‘rin tutadi. Ushbu qissa insoniy munosabatlar, do‘stlik va hamkorlik haqida chuqur ma’no anglatadi.



Mustafo yigitlik yillarida ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechiradi, ammo uning yuragida doimo yaxshilik va adolatga intilish bor. Mustafo bilan Ibodulla Maxsum va G'uchchi chol o'rtasidagi do'stlik qissa davomida turli sinovlar va voqealar orqali rivojlanadi va mustahkamlanadi. Ibodulla Maxsum va G'uchchi chol Mustafoning qiyinchiliklariga sherik bo'lib, unga doimo yordam berib, maslahatlar berishadi. Ushbu uchlik o'rtasidagi munosabatlar samimiylilik va bir-biriga bo'lgan ishonch asosida qurilgan. Ular bir-birlarini qo'llab-quvvatlashadi, birgalikda turli muammolarni hal qilishadi va hayotiy sinovlardan o'tadilar.

Murod Muhammad Do'stning "Mustafo" qissasi orqali o'quvchi haqiqiy do'stlikning qadrini va hayotdagi eng muhim narsalardan biri ekanligini tushunadi. Bu qissa o'quvchilarga mehr-muhabbat, sadoqat va samimiyat kabi insoniy fazilatlarning ahamiyatini eslatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Murod Muhammad Do'st. (2022). *Galatepaga qaytish*. Factor books.
2. Nazar Eshonqul. (2018). *Ijod falsafasi* (Mendan mengacha 2). Akademnashr.
3. Rahmon Q. (2009). Yana "Galatapa..."ga qaytib. ***"O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, (15), 14.***
4. Sharafiddinov O. (1981). *Adabiyot – hayot darsligi*. G'afur G'ulom.
5. Расулова У. (2020) *XX аср Ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари)*. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.